

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251947>

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MOTIVATSIYASI VA KASBIY KOMPETENTLIGINI O‘ZARO ALOQADORLIKDA RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Zikirova Nodira Yo‘ldoshevna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari, o‘qituvchilarda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ustoz-shogird an‘analari, kasbiy kompetensiyalarni rivojlanishi va metodik tayyorgarligi takomillashishining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, motivatsiya, texnologiya, integrativ, kasbiy motivatsiya, kompetentlik, kasbiy kompetent, metodik tayyorgarlik, akmeologik, ijtimoiy motivlar, o‘zini o‘zi rivojlantirish.

METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL MOTIVATION AND PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS IN INTERCONNECTION

ABSTRACT

In this article, the theoretical foundations of the formation of professional competence of future teachers, the development of professional skills in teachers, the specific features of the master-disciple traditions, the development of professional competences and the improvement of methodical preparation are revealed in the formation.

Keywords: competence, motivation, technology, integrative, professional motivation, competence, professional competence, methodical training, acmeological, social motives, self-development.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ВО ВЗАИМОСВЯЗИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены теоретические основы формирования профессиональной компетентности будущих учителей, развития профессиональных навыков учителей. В формировании раскрываются особенности традиции мастер-ученик, развитие профессиональных компетенций и совершенствование методической подготовки.

Ключевые слова: компетентность, мотивация, технология, интегративный, профессиональная мотивация, компетентность, профессиональная компетентность, методическая подготовка, акмеологические, социальные мотивы, саморазвитие.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz» [1] deya bildirgan fikrlari davlatimizning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar asosida o‘z tasdig‘ini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonining «Ijtimoiy sohani rivojlantirish» deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalishida, 2017 yil 20 apreldagi «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2909-sonli qarorida oliy ta’lim tizimi sifatini yaxshilash va yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish, o‘qituvchi kadrlarning ma’naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar kabi ustuvor vazifalar nazarda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham «...oliy ta’lim tizimida tahsil olish uchun teng imkoniyat

yaratishga qaratilgan ishlarni yanada kuchaytirish zarur, oliy o'quv yurtlari nufuzini oshirish, nodavlat ta'lim maskanlarini ko'paytirib, yuqori malakali kadrlarni jalb etish va raqobatni kuchaytirish lozim» deb ta'kidlangan[2,3].

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga katta e'tibor qaratilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy – tarixiy asoslari sharq mutafakkirlari jumladan, “Ma'mun akademiyasi” deb nomlangan Xorazmdagi ilmiy markazda (IX-XII asrlar) faoliyat ko'rsatgan Muso Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Zamaxshariy, Burhoniddin Marg'iloniyilar ijodida yoshlarga kasbiy ta'lim-tarbiya berish shaxsning qiziqishlari, jamiyat talablari va irsiy omillar bilan bog'liqligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Kasbga yo'naltirish, kasb tanlash, kasbiy tayyorgarlik masalalari pedagog, psixolog olimlar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan bo'lib, ular o'ziga xos yondashuvlarni ilgari suradilar. Jumladan, V.A. Slastenin, N.N. Azizxodjaeva,

J.G'.Yo'doshev innovatsion texnologiyalar orqali kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish; SH.E. Qurbanov, E.A. Seytxalilov, F.Yuzlikaev, N.Muslimov, Sh.Sharipov, N.Egamberdiyevlar kasbiy ta'limni shaxs, jamiyat va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiya asosida yo'lga qo'yish muammolarini o'rgananglar.

S.Nishonova, V.Karimova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, M.Ochilov, M.Quronov, A.Choriyev, SH.Majitova, N.Ochilova, O.Xaydarova va boshqalarning ishlarida zamonaviy o'qituvchini tarbiyalash, uning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, o'qituvchi odobi, zamonaviy o'qituvchida kasbiy-ijodiysifatlarining shakllanishida oila, ta'lim muassasalari hamda jamoatchilik o'rni kabi masalalar o'rganilgan.

Tahlil va natijalar.

O'qituvchi – ta'lim va tarbiya mazmunining boshqaruvchisi, o'quvchilarning butun ongli faoliyatining tashkilotchisi hisoblanadi. Uning shaxsida pedagogik qadr-

qimmatning obyektiv va subyektiv xususiyatlari ifodalanadi. U obyektiv bilim, malaka va ko'nikmalarning miqdorini o'zlashtiradi va shaxsiy qobiliyatlari me'yorida ularni shakllantirishni tashkil qiladi. Chunki, bugungi kun yoshlarini har tomonlama mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallaydigan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu sababli, yoshlar har soniya bilim olishdan, olgan bilimlaridan kelib chiqib tajribasini oshirishdan to'xtamasligi lozim. Zero, ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda mamlakatimizni taraqqiyot sari yetaklash oliy maqsaddir.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Hozirgi zamonda hayot juda o'zgaruvchan. Ta'limdagi katta o'zgarishlar o'qituvchining kasbiy ongidagi o'zgarishlarsiz bo'lmaydi. Zamonaviy o'qituvchida zarur bo'lgan ko'plab yangi bilimlar, tushunchalar paydo bo'ldi. Shunday tushunchalardan biri kompetentlilikdir. Bu nima? Biz bu haqda qanday tasavvurga egamiz, ana shu haqda fikr yuritmoqchimiz. **Kompetentlilik**- bu o'qituvchining noaniq holatda harakat qilish qobiliyati. Hozirgi zamon o'qituvchisi doimo ijodiy izlanishda bo'ladi, shuningdek, o'quvchini nimaga o'rgatish kerak kabi dolzarb savolga javob qidirishi lozim. Zamonaviy o'qituvchi ishiga va o'quvchilarga bo'lgan mehrini o'ziga mujassam etish, nafaqat bolalarni o'qitishi, o'zi ham ulardan o'rgana olishi zarur. Zamonaviy pedagog har bir boladagi eng yaxshi sifatlarni yuzaga chiqarib, ularni

rag'batlantirishi kerakki, bu bolalar maktabni tugatganlaridan keyin ham olgan bilimlaridan quvonib, jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari, unga sidqidildan xizmat qilishlari zarur.

Bo'lajak o'qituvchini har tomonlama kamolga yetkazish, yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalash, unda kasbiy-ijodiy ko'nikma va malakalarni tarbiyalashda pedagogik ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Muammoni o'rganish zamonaviy globallashuv, jadallashuv va modernizatsiya davrida bo'lajak o'qituvchi qiyofasida aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, badiiy-estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik madaniyat hamda sog'lom turmush tarziga ega bo'lishni ifodalovchi sifatlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagog kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga doir ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi va bugungi kunda qanday sodir bo'lishi kerak? - degan dolzarb savol tug'iladi.

Bo'lajak mutaxassislar uchun jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng foydalanish, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirildi. Davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, xorijiy tillarni chuqur o'rganish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Zamonaviy o'qituvchi ishiga va o'quvchilarga bo'lgan mehrini o'ziga mujassam etish, nafaqat bolalarni o'qitishi, o'zi ham ulardan o'rgana olishi zarur. Zamonaviy pedagog har bir boladagi eng yaxshi sifatlarni yuzaga chiqarib, ularni rag'batlantirishi kerakki, bu bolalar maktabni tugatganlaridan keyin ham olgan bilimlaridan quvonib, jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari, unga sidqidildan xizmat qilishlari zarur. Zamonaviy o'qituvchi-bu professional. Pedagogning professionalligi kasbiy layoqati, fikrlashi va mustaqil rivojlanishi bilan, ya'ni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan sifatlarni o'zida shakllantira olganligi bilan belgilanadi, zamonaviy pedagogning asosiy xususiyatlari doimo o'z ustida ishlash o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish, bilimdonlik va yuqori madaniyatlilik. O'qituvchining kasbiy

o'sishini o'qishga bo'lgan ehtiyojsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zamonaviy o'qituvchi uchun erishilgan yutuqda to'xtamaslik juda muhim, u doim olg'a borishi shart. Chunki, o'qituvchining mehnati-bu cheksiz ijod uchun ajoyib manba.

Mazkur muammo yuzasidan mulohaza yuritgan atoqli olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning fikricha. « ...O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rostgo'y va bola tarbiyalash uslublarini axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim».[4]

Abu Ali ibn Sino o'z asarlarida, o'qituvchi bolalarga ta'lim berishdek mas'uliyatli burchni bajarishi zarurligini uqtirar ekan, ularga faoliyatda muvoffaqiyatga erishish garovi bo'lgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- berilayotgan bilimning talabalar tomonidan ozlashtirilishiga e'tiborni qaratish;
- ta'limda turli shakl va metodlardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi, fanga qiziqтира olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;

bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish.

Hozirgi sharoitda ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi talabalar o'zida kasbiy sifatlarni shakllantirish uchun doimiy o'z ustida mustaqil ish yuritishi, o'z imkoniyatlarini mustaqil tarzda rivojlantirish yo'llarini izlab, shaxsiy faollilik ko'rsatishi lozim. Buning uchun eng oddiy mexanizm - dono xalqimizning «Ustoz-shogird» an'anasi orqali shakllantirish ham maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar

Talabalarda yuqoridagi kasbiy elementlarni shakllanishiga erishilsaularda mehnat faoliyati quyidagi muvaffaqiyatlarga:

Birinchidan, talaba o'zi uchun kerak bo'lgan, faoliyatni samarali bajarishga yordam beradigan malakalarni rivojlantiradi.

Ikkinchidan, talaba muloqot va jamoaviy harakat malakalariga ega bo'ladi.

Uchinchidan, talaba o'zi uchun kerak, oldindan ko'ra bilish, bashoratlashtirish malakasiga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, talabada faol hayotiy pozitsiya va mehnatga yuqori motivlar shakllanadi.

Beshinchidan, o'quvchi-talabalar bilan muomala qilganda zarur so'z, gap ohangi, qarash, imo-ishorani tez va aniq topish, eng o'tkir va kutilmagan pedagogik vaziyatlarda osoyishtalik va aniq fikr yuritish, tahlil qilish qobiliyatini shakllanadi.

Talabalarda pedagogik-kasbiy sifatlarni shakllantirish zamirida ularda quyidagi psixologik ko'nikma va malakalar shakllanadi:

- Tafakkur (tafakkur operatsiyalarini bajara olish) shakllanadi;
- Emotsional-irodaviy sifatlarni –emotsiyalar, irodaviy aktlar, ularni namoyon etish yo'llarini o'rganadi;
- Mehnat jamoasiga, odamlarga, mehnatga, o'ziga nisbatan bo'lgan kechinmalarni tartibga oladi;
- Bilimlar, dalillar, qonuniyatlarga tayanadi;
- Tajribalarga tayanib milliy mafkura asosida milliy kadr siymosi gavdalanadi;
- Milliy axloq ko'nikma va odatlarini tarkib toptirgan kadr siymosi gavdalanadi;
- talabalar va o'quvchilarning individual xususiyatlarni inobatga olish, ta'lim jarayonida eng optimal metod va vositalarni tanlaydi
- ijodiy qobiliyatlarni rivoj topishiga erishadi;
- pedagoglik kasbiga oid talabchanlik hamda tizimlilikni o'sishiga.

Yuqoridagi bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak pedagog kadrlarda kasbiy sifatlarni faqat auditoriya mashg'ulotlari bilan cheklanib qolmasdan, uni butun o'quv tarbiyaviy va amaliy ishlar jarayonida, professor-o'qituvchilar shaxsan o'rnak ko'rsatgan holda doimiy rivojlantirib borish pedagog-murabbiylarning muhim vazifasi va burchi bo'lmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Халқ сўзи, 2018, 29 декабрь, №271-272.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida»gi PQ-3775-sonli Qarori. //Халқ сўзи, 2018, 6iyun, №115. <https://journalsnuu.uz/index.php/1/article/view/2035>
3. MirziyoyevSh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.:O'zbekiston,2017. -189 b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11209216>
4. Zunnunov A. «Pedagogika tarixi» Darslik — T. «O'qituvchi» nashriyoti 2004. - 335b. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/2706>